

Jamiyat Va Ma'naviy Hayot Uyg'unligi Haqida Qarashlar

Yo'ldasheva Fotima Akram qizi, Ibragimov Abdullo Ibodullo o'g'li

1-bosqich talabasi, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Usanov Shuhrat Musurmonovich

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafederasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatning turlari, jamiyatning yaratilish mexanizmi va jamiyatdagi o'zaro munosabatlar, jamiyat qonunlarining amal qilishi, odamlar va ular uyushmalarining ongli faoliyati, undagi asosiy muammolar va ularning yechimlari haqida ma'lumotlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Jamiyat, moddiy va ma'naviy omillar, ijtimoiy ong shakllari, industrial-sanoat jamiyati, ochiq va yopiq jamiyat, farovonlik jamiyati, jamiyat turlari.

Jamiyat kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui hisoblanadi. Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo'lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a'zosi deb ataladi. Jamiyat — tabiatning bir qismi ya'ni ijtimoiy borliq bo'lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi, degan turlicha ta'riflar ham bor.

Jamiyat moddiy va ma'naviy omillar birligidan iborat hisoblanadi. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma'naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar edi.

Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma'naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqqa ziddir.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda vujudga keldi.

Jamiyatning moddiy hayotiga quyidagilar kiradi:

- kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo'gan iqtisodiy shart-sharoitlar;
- oziq-ovqat, kiyim-kechak, turarjoy, yoqilg'i, kommunikatsiya vositalari;
- moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish;
- ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmui;
- moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar. Jamiyatning ma'naviy hayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, g'oyalar, mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta'lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar kiradi.

Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Zamonaviy jamiyat turlariga quyidagilar kiradi.

1. **Farovonlik jamiyati.** Ushbu nazariyaga ko'ra iqtisodiyotning o'sishi va yangi texnologiyaning ishlab chiqarishga tadbir natijasida jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy farovonligi ortib boradi, mo'l-ko'pchilik natijasida iste'mol mahsulotlarining ko'plab realizatsiya qilinishi natijasida jamiyatdagi har bir kishining baxtli va nizolarsiz hayot kechirishi ta'minlanadi..

2. **Iste'mol qilish jamiyati.** Unchalik nazariy, empirik va amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan tushuncha. Amerika sotsiologlari tomonidan XX asr 40-50 yillarida jamiyatning har bir a'zosining hayot darajasini yaxshilash maqsadida paydo bo'layotgan tasavvurlarning keng yoyilishi natijasida vujudga kelgan nazariya.

3. **Ochiq va yopiq jamiyati.** Sotsiologiyaga K.Popper tomonidan kiritilgan bo'lib, taraqqiyotning turli bosqichlarida turli jamiyatlarning madaniy-tarixiy va siyosiy tasvirlanishi ifoda etiladi. Ochiq jamiyat- demokratik jamiyat bo'lib, tashqi muhit sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o'tmoqqa moslashgan jamiyat, yopiq, jamiyat esa dogmatik-avtoritar rejim asosida bo'lib, sehrli tafakkur, dogmatizm va kollektivizm.

4. **Industrial-sanoat jamiyati.** An'anaviy jamiyat kategoriyasidan ajratib turuvchi, g'arb sotsiologiyasida rivojlangan jamiyatning kelib chiqishi va tabiati to'g'risidagi ikki asosiy kategoriyaning biri. .

Jamiyatni yaratish uchun uchta asosiy shart bajarilishi kerak. **Birinchi**dan, umumiy maqsadlar, qiziqishlar, ehtiyojlarga ega bo'lish kerak. **Ikkinchi**dan, mana shunday resurs bo'lishi kerakki, unga barcha jamoat a'zolari doimiy, cheksiz, tun-u kun kirish huquqiga ega bo'lishadi. **Uchinchi**dan, muloqot uchun umumiy til yoki guruh a'zolari suvga cho'mgan mavzu kerak.

Jamiyat tarkibiga kiritilgan odamlar soni bo'yicha aniq asoslarga ega bo'lishi kerak. Olimlar tomonidan aniqlanganidek, odam 150 dan ortiq tanish odamni boshida ushlab turolmaydi[2.160-bet]. Ushbu miqdor jamiyat uchun maqbul hisoblanadi. Odamlar bir-birlarini tanimaydigan jamoat a'zolarining cheksiz ko'pligi jamoani olomonga aylantiradi. To'plam va jamoaning asosiy farqi shundaki, to'plam a'zolari o'rtasida hech qanday aloqalar mavjud emas. Ular shunchaki bir joyda joylashgan odamlardir[2.157-bet]. Ular umumiy fikrga ega bo'lmaydi insoniyat jamiyati hech qachon erkin bo'lmagan va bo'la olmaydi ham, chunki "jamiyat" atamasi uning barcha a'zolarining yaqin o'zaro ta'sirida ijtimoiy va ishlab chiqarish taqsimoti mavjud bo'lgan jamiyatni anglatadi.

Shuning uchun jamiyatda mavjud bo'lgan kishilar, alohidalikka va turli aqlga kelgan yod tushunchalarni amalga oshirishi, hamma narsani qilish mantiqqa zid hisoblanadi. Zero, sizning harakatlaringiz bilan boshqalarning huquqlarini buzilmasligi muhimdir.

Jamiyatdagi o'rnatilgan siyosiy munosabatlar asosida kishilar o'z siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga intiladilar. Ma'naviy sohada kishilar turli ma'naviy qadriyatlarni yaratadi, tarqatadi va jamiyatning turli qatlamlari tomonidan o'zlashtiriladi.

Bu sohaga adabiyot, san'at, musiqa asarlari bilan bir qatorda kishilarning bilim saviyasi, fan, axloqiy me'yor va umuman olganda, jamiyat hayotining ma'naviy mazmunini tashkil qiluvchi narsalar kiradi. Hozir O'zbekistonda Jamiyat taraqqiyotining eng asosiy muammosi insonlarning, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantirish va boyitish, ularni istiqbol mafkurasi asosida tarbiyalash, o'zbek xalqining boy madaniy va ma'naviy merosi, qadriyatlari, an'analari va urf-odatlarini egallashlari uchun shart-sharoit yaratishdir.

Yurtimizda bunday jamiyatni barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. O'z navbatida, ma'naviy yetuk avlod jamiyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shadi. Shunday yetuk kishilarni tarbiyalashda jamiyat to'g'risidagi falsafiy bilim va qarashlarni o'zlashtirish va hayotga tatbiq etish alohida ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.

2. S.Qozoqov "Shaxs va jamiyat", Namangan-2017.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediya (2000-2005)